XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....	971
Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI	976
Abdusattorov Abdusamat Sobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI	981
Karieva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI	989
Dusanov Salim Mamarasulovich	



QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI	995
Temirov Azizbek Voit o'g'li	
STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1009
Шакаров Зафар Гаффорович	
TURIZM KLASSTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnnoza Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI.....	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES.....	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH.....	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdammovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI.....	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abdugarimovna	



O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI

Tangrieva Farida Abdulkarimovna

Toshkent shahar Yangiayot tumani

G'aznachilik xizmati bo'limi

“Moliyaviy majburiyatlar ijrosi va moliyaviy resurslarni boshqarish” guruhi bosh mutaxassisi.

Email: ftangrieva@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada O'zbekistonda davlat moliyasini boshqarishda g'aznachilik tizimini raqamlashtirish jarayonlari, ularning iqtisodiy samaradorlik va budjet boshqaruvi sifatiga ta'siri keng yoritilgan. “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida g'aznachilik tizimida operatsion jarayonlar avtomatlashtirilib, moliyaviy nazorat, audit va budjet ijrosi jarayonlari yaxlit elektron platforma orqali boshqarilmoqda. Tadqiqotda raqamlashtirishning fiskal intizom, shaffoflik, budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi hamda korrupsion xavflarni kamaytirishdagi ahamiyati statistik va ekspert tahlillari asosida baholangan. Olingan natijalar g'aznachilik tizimining raqamli transformatsiyasi davlat moliya boshqaruvining institutsional salohiyatini oshirib, iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada kuchaytirganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: g'aznachilik tizimi, raqamli transformatsiya, davlat moliyasi, fiskal intizom, budjet ijrosi, shaffoflik, samaradorlik, “Raqamli O'zbekiston – 2030”.

Abstract. This scientific article explores the process of digitalization within Uzbekistan's treasury system and its impact on economic efficiency and the quality of budget management. Within the framework of the “Digital Uzbekistan – 2030” strategy, operational processes of the treasury have been automated, enabling integrated management of financial control, auditing, and budget execution through a unified electronic platform. The study evaluates the effects of digital transformation on fiscal discipline, transparency, efficient use of budget funds, and the reduction of corruption risks based on statistical and expert analyses. The results indicate that the digital transformation of the treasury system has significantly strengthened the institutional capacity of public financial management and enhanced the efficiency of economic resource utilization.

Key words: treasury system, digital transformation, public finance, fiscal discipline, budget execution, transparency, efficiency, “Digital Uzbekistan – 2030”.

Аннотация. В данной научной статье подробно рассматриваются процессы цифровизации казначейской системы в управлении государственными финансами Узбекистана, их влияние на экономическую эффективность и качество бюджетного управления. В рамках реализации Стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» в казначейской системе были автоматизированы операционные процессы, внедрены электронные механизмы финансового контроля, аудита и исполнения бюджета. В исследовании статистическими и экспертными методами оценены влияние цифровизации на усиление фискальной дисциплины, повышение прозрачности, эффективность использования бюджетных средств и снижение коррупционных рисков. Полученные результаты показывают, что цифровая трансформация казначейской системы значительно повысила институциональный потенциал государственного финансового управления и эффективность использования экономических ресурсов.

Ключевые слова: казначейская система, цифровая трансформация, государственные финансы, фискальная дисциплина, исполнение бюджета, прозрачность, эффективность, «Цифровой Узбекистан – 2030».

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasini boshqarish tizimini modernizatsiya qilish, uning institutsional va tashkiliy asoslarini takomillashtirish yo'lida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, budjet siyosatini optimallashtirish va davlat moliya tizimining shaffofligini oshirishga qaratilgan. Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “raqamli texnologiyalarni davlat boshqaruvi joriy etish budjet siyosatining shaffofligini oshirish va xalq manfaatiga xizmat qiladigan



samarali moliyaviy tizimni yaratishning eng muhim omilidir.” Mazkur strategik yo’nalish “Raqamli O’zbekiston – 2030” dasturining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo’lib, davlat moliyasi boshqaruvining barcha bosqichlarini raqamli transformatsiya qilishni nazarda tutadi.

G’aznachilik tizimi bu jarayonda markaziy o’rin tutadi, chunki u davlat budjeti mablag’larining shakllanishi, taqsimlanishi va maqsadli sarflanishini ta’minlaydigan boshqaruv instituti sifatida faoliyat yuritadi. Raqamli texnologiyalarni g’aznachilik faoliyatiga joriy etish budjet mablag’lari harakatini real vaqt rejimida kuzatish, operatsiyalarni onlayn tarzda nazorat qilish va moliyaviy intizomni kuchaytirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari yordamida budjet ijrosi jarayonlari inson omilidan holi, yuqori tezlikda va minimal xato bilan amalga oshirilmoqda.

Avvalgi yillarda budjet ijrosida hujjat aylanishi, xarajatlarni tasdiqlash va moliyalashtirish jarayonlari ko’pincha qo’lda bajarilgan, bu esa vaqt sarfi, ma’muriy to’siqlar va korrupsion xavflarning ortishiga sabab bo’lgan. Bugungi kunda esa “G’aznachilik axborot tizimi”, “Davlat xaridlari yagona portali”, “Budjet jarayoni monitoring tizimi”, “Open Budget” platformasi kabi elektron tizimlar orqali ushbu jarayonlar to’liq raqamlashtirilgan. Natijada, davlat mablag’larining har bir so’mini maqsadli sarflash, budjet intizomini mustahkamlash, shaffoflik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish imkoniyati yaratildi.

Shuningdek, raqamli g’aznachilik tizimining joriy etilishi moliyaviy axborotlarning tezkor almashinuvi, ma’lumotlarning markazlashgan bazada saqlanishi va tahliliy hisob-kitoblarning aniqligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa nafaqat davlat moliyasini samarali boshqarish, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda ham muhim omilga aylanmoqda. Xususan, raqamli tizimlar yordamida budjet daromadlari va xarajatlari o’rtasidagi muvozanatni saqlash, kutilmagan fiskal xatarlarni oldindan aniqlash, davlat qarzining barqarorligini nazorat qilish imkoniyati kengaymoqda.

Shu bilan birga, g’aznachilik tizimining raqamlashtirilishi davlat moliya boshqaruvi tizimida xalqaro standartlarga yaqinlashishning muhim bosqichi hisoblanadi. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg’armasi va OECD tavsiyalariga ko’ra, davlat budjeti ijrosini raqamli boshqaruvga o’tkazish fiskal intizom, ochiqlik va samaradorlikni oshiruvchi eng samarali mexanizmlardan biridir. O’zbekiston ham bu yo’nalishda ilg’or tajribalarni amaliyotga joriy etmoqda.

Demak, ushbu tadqiqotning dolzarbligi O’zbekiston iqtisodiyotida davlat moliyasini samarali boshqarish, budjet jarayonlarining shaffofligini ta’minlash hamda raqamli transformatsiya natijasida yuzaga kelayotgan moliyaviy samaradorlikni ilmiy asosda baholash zaruriyati bilan belgilanadi. Tadqiqot g’aznachilik tizimi raqamlashtirilishining iqtisodiy natijalarini, ularning budjet jarayonlariga ta’sirini va fiskal boshqaruv sifatini oshirishdagi rolini kompleks tahlil qilishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon tajribasida g’aznachilik tizimini raqamlashtirish davlat moliyasini barqarorlashtirish, fiskal shaffoflikni oshirish va budjet mablag’laridan foydalanish samaradorligini kuchaytirishning muhim omili sifatida e’tirof etiladi. Jahon bankining 2023-yilgi hisobotida qayd etilishicha, raqamli g’aznachilik tizimlari davlat moliyasi boshqaruvida ma’lumotlar almashinuvi tezligini 40 foizga oshirgan, bu esa budjet mablag’larining maqsadli taqsimlanishiga xizmat qilgan [1]. Xalqaro valyuta jamg’armasi (IMF) ekspertlari esa raqamli davlat moliya boshqaruvi orqali fiskal xatarlar monitoringi aniqligi 30 foizga yaxshilanganini ta’kidlashadi [2].

Shu bilan birga, OECD (2022) tomonidan e’lon qilingan “Public Finance Digitalization and Transparency Report”da raqamlashtirish natijasida davlat xarajatlari ustidan elektron audit tizimlarining joriy etilishi korrupsion xavflarni kamaytirishning eng samarali vositasi sifatida baholangan [3]. Ushbu yondashuv Janubiy Koreya, Estoniya va Finlyandiya kabi mamlakatlarda muvaffaqiyatli tatbiq etilgan bo’lib, bu mamlakatlarda g’aznachilik operatsiyalarining 100 foizi yagona markazlashtirilgan elektron platformalar orqali amalga oshiriladi [4].

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham g’aznachilik tizimining raqamlashtirilishi masalalari chuqur o’rganilgan. Q. Shirinov (2022) o’z tadqiqotida axborot texnologiyalarini joriy etish natijasida budjet ijrosida inson omili kamaygani, moliyaviy intizom va hisobdorlik oshganini ilmiy asosda tahlil qilgan [5]. S. Nazarov (2023) esa raqamli boshqaruv orqali budjet xarajatlarini rejalashtirishning sifat ko’rsatkichlari sezilarli darajada oshganini, shuningdek, “Smart Treasury” modeli davlat xarajatlarini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini berganini ta’kidlagan [6].

B. Jo’rayev (2024) o’z ilmiy maqolasida raqamli g’aznachilik tizimining fiskal boshqaruvga ta’sirini o’rganar ekan, bu jarayon nafaqat budjet shaffofligini ta’minlagani, balki davlat xarajatlarining natijadorligini oshirganini ham ko’rsatadi [7]. Xuddi shuningdek, R. Abdullayev (2023) O’zbekistonda “G’aznachilik axborot tizimi” joriy etilgach, budjet mablag’larini o’zlashtirishda vaqt sarfi 65 foizga qisqarganini, bu esa davlat sektori samaradorligiga ijobiy ta’sir ko’rsatganini qayd etgan [8].

Xalqaro miqyosda esa Gupta va Yläoutinen (2014) o’z tadqiqotlarida raqamli g’aznachilik tizimlari orqali fiskal intizomni mustahkamlash, mablag’larning qayta taqsimlanishidagi yo’qotishlarni kamaytirish va budjet



siyosatining barqarorligini ta'minlashni davlat boshqaruvida "digital fiscal governance" konsepsiyasining asosiy ustuni sifatida ko'rsatadilar [9]. Shuningdek, Allen (2019) va Dorotinsky (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamlashtirilgan g'aznachilik tizimi davlat xarajatlarini boshqarishning "cost-benefit" tahlilini avtomatlashtirish orqali qaror qabul qilish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirgani ta'kidlanadi [10], [11].

Estoniya, Janubiy Koreya, Singapur va Finlyandiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli g'aznachilik tizimlari nafaqat moliyaviy nazoratni kuchaytiradi, balki davlat boshqaruvining samaradorlik indeksini ham oshiradi. O'zbekiston bu yo'nalishda bosqichma-bosqich yondashuv asosida ilg'or xalqaro tajribani tatbiq etib, 2020–2024-yillar davomida davlat xarajatlarini avtomatlashtirish va nazorat tizimini integratsiyalash orqali sezilarli ijobiy natijalarga erishdi [12].

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, g'aznachilik tizimining raqamlashtirilishi — bu shunchaki texnologik islohot emas, balki fiskal boshqaruv madaniyatini yangi bosqichga olib chiqadigan tizimli transformatsiyadir. Shu jihatdan, O'zbekiston tajribasini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish mamlakatda davlat moliyasini samarali, shaffof va natijador boshqarishning kafolatli yo'lidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda g'aznachilik tizimini raqamlashtirishning moliyaviy samaradorligini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi. Avvalo, tizimli tahlil orqali g'aznachilik tizimining institutsional, tashkiliy va huquqiy asoslari o'rganildi hamda uning davlat moliya boshqaruvidagi o'rni aniqlab berildi. Taqqoslama tahlil yordamida O'zbekiston tajribasi Janubiy Koreya, Estoniya va Finlyandiya kabi ilg'or mamlakatlar amaliyoti bilan solishtirilib, o'xshash va farqli jihatlar tahlil qilindi. Statistik tahlil orqali 2018–2024-yillar mobaynida Moliya vazirligi va G'aznachilik hisobotlari asosida samaradorlik ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi. Shuningdek, ekspert baholash usuli asosida raqamlashtirishning iqtisodiy ta'siri hamda budget intizomi va shaffoflik darajasiga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot manbalari sifatida "Open Budget" portali, Moliya vazirligining yillik hisobotlari va "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi natijalari foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimini raqamlashtirish davlat moliyasini boshqarishning samaradorligini oshirishda strategik o'rin egallamoqda. 2018–2024-yillar oralig'ida amalga oshirilgan islohotlar natijasida budget mablag'larining shakllanishi, taqsimlanishi va nazorat qilinishi bosqichlari to'liq elektron shaklga o'tkazildi. Bu esa fiskal intizomni mustahkamlash, inson omilini kamaytirish hamda budget ijrosida shaffoflikni ta'minlash imkonini berdi.

Tizimli tahlil shuni ko'rsatadiki, raqamli g'aznachilik tizimi O'zbekiston moliya boshqaruv tizimida uchta asosiy yo'nalishda samaradorlikni ta'minlagan: (1) operatsion jarayonlarning avtomatlashtirilishi, (2) audit va nazorat mexanizmlarining integratsiyalashuvi, va (3) fuqarolik nazoratini kuchaytiruvchi ochiq ma'lumot tizimlarining joriy etilishi. Ayniqsa, "Smart Treasury", "Open Budget", "Davlat xaridlari yagona portali" va "E-Hisob" tizimlarining joriy etilishi natijasida real vaqt rejimida ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yildi.

Quyidagi 1-jadvalda 2018–2024-yillar oralig'ida g'aznachilik tizimi raqamlashtirilishining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval. G'aznachilik tizimini raqamlashtirish natijalari (2018–2024)

№	Ko'rsatkich nomi	2018	2020	2022	2024	O'sish (%)	Izoh
1	Budget operatsiyalari onlayn bajarilishi ulushi	35%	62%	84%	96%	+61%	Real vaqt rejimi shakllandi
2	Hujjat aylanishi va to'lov tasdiqlash vaqti (soat)	48	24	8	2	–95%	Tezkorlik va samaradorlik oshdi
3	Maqsadsiz xarajatlar aniqlanishi (mlrd so'm)	8,5	4,2	1,6	0,9	–89%	Nazorat mexanizmlari kuchaydi
4	Davlat xarajatlarining auditi qamrovi	40%	56%	78%	91%	+51%	Raqamli audit joriy etildi
5	Budget shaffofligi indeksi ("Open Budget")	52%	63%	76%	83%	+31%	Fuqarolik nazorati kuchaydi



Mazkur jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2018–2024-yillar oralig'ida budget operatsiyalarining onlayn bajarilishi 2,7 baravar oshgan. Shu bilan birga, hujjat aylanishi uchun sarflanadigan vaqt 48 soatdan 2 soatgacha qisqarib, bu ma'muriy jarayonlarning 95 foizga tezlashganini bildiradi. Maqsadsiz xarajatlarning 8,5 milliard so'mdan 0,9 milliard so'mgacha kamayishi esa raqamli nazorat tizimlarining samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Davlat xarajatlarining auditi qamrovi 51 foizga kengaygani natijasida moliyaviy hisobdorlik oshgan, budget shaffofligi indeksi esa 31 foizga o'sib, davlat moliya boshqaruvida ochiqlik madaniyati shakllana boshlagan.

Statistik tahlil natijalari, shuningdek, "Smart Treasury" tizimi orqali 2024-yilda 1,2 milliondan ortiq moliyaviy hujjat elektron tarzda qayta ishlangani, bu esa davlat budjeti xarajatlarini 130 milliard so'mgacha optimallashtirish imkonini berganini ko'rsatadi. Shunday qilib, raqamlashtirish iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirib, moliyaviy oqimlarni yanada shaffof va nazorat ostida bo'lishini ta'minladi.

Ekspert baholash usuli yordamida aniqlangan natijalar quyidagi 2-jadvalda keltirilgan bo'lib, u raqamlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini ko'rsatadi.


2-jadval. G'aznachilik tizimida raqamlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri (ekspert baholash natijalari)

№	Baholash mezon	Ijoiy baholaganlar ulushi (%)	Izoh
1	Moliyaviy shaffoflikning oshishi	87	Fuqarolik nazorati kengaydi
2	Ma'muriy xarajatlarning qisqarishi	80	Operatsion xarajatlar kamaydi
3	Budget ijrosining tezlashuvi	92	Real vaqt rejimi samarador
4	Audit samaradorligining ortishi	85	Elektron nazorat kuchaydi
5	Korrupsion xavflarning kamayishi	78	Inson omili kamaygan

Ushbu ekspert tahlili natijalaridan ko'rinadiki, mutaxassislarning aksariyati g'aznachilik tizimining raqamlashtirilishi natijasida davlat moliya boshqaruvining samaradorligi keskin oshganini qayd etishgan. Ayniqsa, budget ijrosi tezligi, audit jarayonlarining aniqligi hamda korrupsion xavflarning pasayishi bu sohada amalga oshirilgan raqamli islohotlarning amaliy natijasini ifodalaydi.

Shuningdek, rasm tahlil (quyidagi rasmda) 2018–2024-yillar oralig'ida raqamlashtirish ko'rsatkichlarining dinamik o'sishini tasvirlaydi. Unga ko'ra, budget operatsiyalarining onlayn bajarilishi, audit qamrovi va shaffoflik indeksi barqaror ijobiy tendensiyani namoyish qilgan.

G'aznachilik tizimini raqamlashtirish samaradorligi dinamikasi (2018–2024)



1-rasm. "G'aznachilik tizimini raqamlashtirish samaradorligi dinamikasi (2018–2024)"

O'zbekistonda g'aznachilik tizimini raqamlashtirish natijasida davlat moliya boshqaruvining barcha asosiy tarkibiy qismlarida tizimli sifat o'zgarishlari yuz bergan. Avvalo, inson omilining qisqarishi orqali xatoliklar soni kamaydi, budget jarayonlarining aniqligi va shaffofligi ortdi. Davlat resurslari harakatining real vaqt rejimida kuzatilishi, raqamli audit tizimining kengayishi hamda fuqarolik nazoratining kuchayishi natijasida fiskal barqarorlik mustahkamlandi. Shunday qilib, 2018–2024-yillarda amalga oshirilgan raqamli transformatsiya nafaqat moliyaviy samaradorlikni oshirdi, balki davlat boshqaruvida ochiqlik, hisobdorlik va natijadorlik tamoyillarini kuchaytirish orqali O'zbekiston moliya tizimini yangi bosqichga olib chiqdi.



XULOSA VA TAVSIYALAR

Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekistonda g'aznachilik tizimini raqamlashtirish davlat moliyasini boshqarishning zamonaviy, integratsiyalashgan va shaffof modelini shakllantirganini ko'rsatadi. Raqamli transformatsiya budjet ijrosining tezkorligini oshirdi, moliyaviy ma'lumotlarni real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini yaratdi va davlat moliya boshqaruvining institutsional salohiyatini mustahkamladi. Tadqiqotda olingan dalillarga ko'ra, g'aznachilik tizimining raqamlashtirilishi natijasida budjet operatsiyalarining onlayn bajarilishi 2018–2024-yillar oralig'ida qariyb uch baravar oshgan, hujjat aylanishi va to'lovlarni tasdiqlash jarayonining o'rtacha davomiyligi esa 48 soatdan 2 soatgacha qisqargan. Shu bilan birga, maqsadsiz xarajatlar hajmi 89 foizga kamaygan, audit tizimining qamrovi 40 foizdan 91 foizgacha kengaygan, bu esa moliyaviy nazoratning kuchayganini va korrupsiya xavflarining kamayganini anglatadi. Tahlil natijalariga ko'ra, raqamli g'aznachilik tizimi davlat organlari o'rtasidagi axborot almashinuvi va ma'lumotlar integratsiyasini yaxshilab, budjet resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirgan. Audit jarayonlarining avtomatlashtirilishi esa davlat xarajatlari ustidan nazoratni mustahkamlab, moliyaviy hisobotlarning aniqligini ta'minlagan. Shuningdek, "Smart Treasury" platformasining joriy etilishi hisobdorlikni oshirib, 2024-yilda davlat budjeti xarajatlardan 130 milliard so'mgacha tejash imkonini bergan. Kelgusida raqamli g'aznachilik tizimini yanada rivojlantirish uchun quyidagi strategik takliflar ilgari suriladi: birinchidan, sun'iy intellekt asosida prognozlash tizimini joriy etish orqali budjet tushumlari va xarajatlarning real vaqt tahlilini avtomatlashtirish; ikkinchidan, budjet foydalanuvchilar uchun mobil ilovalar ishlab chiqish orqali qulaylik va interaktiv nazoratni kengaytirish; uchinchidan, raqamli xavfsizlikni kuchaytirish va kiberxavflarga qarshi himoya tizimlarini mustahkamlash; to'rtinchidan, xalqaro "GovTech" standartlariga muvofiq integratsiyalashgan fiskal boshqaruv modelini joriy etish. Ushbu choralar O'zbekiston g'aznachilik tizimining raqamli transformatsiyasini chuqurlashtirib, davlat moliyasini boshqarish samaradorligini xalqaro darajada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. World Bank, *FinTech and Public Financial Management in Emerging Economies: Opportunities and Risks*, Washington, DC: World Bank Group, 2023.
2. International Monetary Fund (IMF), *Digitalization and Fiscal Transparency: Global Survey Results*, Washington, DC, 2022.
3. OECD, *Public Finance Digitalization and Transparency Report 2022*, Paris: OECD Publishing, 2022.
4. Kim, S., & Lee, H., "E-Treasury Systems and Fiscal Governance: Lessons from Korea and Estonia," *Public Budgeting & Finance*, vol. 43, no. 2, pp. 101–117, 2023.
5. Shirinov, Q. (2022), "Axborot texnologiyalarining davlat moliyasini boshqarishdagi roli," *Moliya va Hisob Jurnal*, 3(1), pp. 45–56.
6. Nazarov, S. (2023), "Smart Treasury modeli va budjet ijrosida shaffoflikni oshirish omillari," *Iqtisodiy tahlil va boshqaruv*, 4(2), pp. 61–70.
7. Jo'rayev, B. (2024), "Davlat moliyasini raqamlashtirish: nazorat va samaradorlik masalalari," *Moliya va Hisob*, 2(3), pp. 32–47.
8. Abdullayev, R. (2023), "O'zbekistonda G'aznachilik axborot tizimi va moliyaviy boshqaruv samaradorligi," *O'zbekiston Iqtisodiyoti Jurnal*, 3(1), pp. 50–60.
9. Gupta, S., & Yläoutinen, S. (2014), "Budget Institutions in Low-Income Countries: Lessons from International Experience," *IMF Working Paper*, WP/14/38.
10. Allen, R. (2019), "Digital Public Financial Management and the Future of Treasury Operations," *Public Money & Management*, vol. 39, no. 8, pp. 603–612.
11. Dorotinsky, W. (2021), "Treasury Systems Reform and Automation: Global Perspectives," *International Journal of Governmental Financial Management*, vol. 21, no. 1, pp. 27–41.
12. Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan, *Treasury Digitalization Progress Report 2024*, Tashkent: State Treasury, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>